
Farg'ona shahridagi 10-maktabda viloyat va shahar hokimlarining o'rinbosarlari tashrif buyurishdi

“YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirini maktab direktori Sh.Sodiqova ochib, barcha yig‘ilganlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 31 yilligi hamda “Bilimlar kuni” bilan tabriklab, tantanali bayram dasturini ochib berdi.

Bayram tadbirida Farg'ona viloyat hokimi o'rinbosari X.Isaqov, Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari R.Mamajonova, Farg'ona shahar hokimining o'rinbosari Sh.Sayfuddinovlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida 132 nafar 1-sinf o'quvchilariga “Prezident sovg'alari” topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-08 10:40:10